

**SCIENCE
PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

 Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzARB
muammolari**

Jild 3, Son 7/S
2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/7 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфизилиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амирнов Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Тошкент давлат юридик университети.

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги

педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шохида Зайневна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўйими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Марҳабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насридин Атакуллович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-үй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Холлиев Азизбек Гўзалович</i> РОССИЯ-АМЕРИКА САВДО АЛОҚАЛАРИ ТАРИХИДАН (XVIII АСР ЎРТАЛАРИ – XIX АСР БИРИНЧИ ЯРМИ)	7-13
<i>Юлдашев Сайданварбек Баҳромжон ўғли</i> ФАРГОНА СОМОНИЙЛАРИ ТАРИХИДАН ЛАВҲАЛАР	14-25
<i>Бобоҷонов Шавкат Улуғбековиҷ</i> ФЕНОМЕН БАҲАУДДИНА НАҚШБАНДИ В ПАЛОМНИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЕ НАСЕЛЕНИЯ БУХАРСКОГО ОАЗИСА	26-31
<i>Raxmonqulova Masuma Mengniqulovna</i> ZARDUSHTIYLIK DINIGA OID YOZMA MANBALARNING ARXEOLOGIK MANBALARDA AKS ETISHI	32-39
<i>Isarov Umidulla Isar o'g'li</i> “ILK KO'CHMANCHILAR” ATAMASI MUAMMOSI	40-45
<i>Исламов Шарифжон Ганиджанович</i> “КЕНГАШ” ЖУРНАЛИДА СИЁСИЙ, ДИНИЙ ВА ИЖТИМОИЙ МУАММОЛАРНИНГ ЁРИТИЛИШИ	46-54
<i>Фарманова Гулнара Комилевна</i> АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ РАБОТЫ И ИССЛЕДОВАНИЯ НА ТЕРРИТОРИИ САМАРКАНДСКОГО СОГДА В ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЕ ХХ ВЕКА (НА ПРИМЕРЕ РАБОТ Г.В.ГРИГОРЬЕВА И А.И.ТЕРЕНОЖИНОЯТ КОДЕКСИИНА)	55-64

8.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Ablazov Nurillo Xusanboyevich</i> QURILISH KORXONALARIDA DAROMAD VA XARAJATLARNI TAN OLISHNING XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	65-71
<i>Kunduzova Kumrixon Ibragimovna</i> ONLAYN MOLIYAVIY XIZMATLARNING XUSUSIYATLARI	72-79
<i>Пардаев Мамаюнус Қаршибаевич, Бабаназарова Севара Абдиназаровна</i> ИНСОН КАПИТАЛИ ТУШУНЧАСИННИГ МАЗМУНИ, ТАРКИБИ ВА УНИ ИФОДАЛОВЧИ КЎРСАТКИЧНИ АНИҚЛАШ ЙЎЛЛАРИ	80-90
<i>Norkochkarov Abdulaziz Ziyadullaevich</i> PRACTICAL ASPECTS OF CREATING COST ESTIMATE IN BUDGET ORGANIZATIONS	91-98
<i>Темиров Шоҳруҳжон Пўлатхўжа ўғли</i> КИЧИК БИЗНЕС РИВОЖЛАНИШИ ОМИЛЛАРИ, ДАРАЖАЛАРИ ВА БАРҚАРОРЛИГИДА ИННОВАЦИОН БОШҚАРИШ САМАРАДОРЛИГИ (ФАРГОНА ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА).....	99-108

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

<i>Raximova Dildora Abzalovna</i> GLOBAL MUAMMOLAR FALSAFASI	109-114
---	---------

Искандаров Жаҳонғир Шарипович
ИНТУИЦИЯ ВА УНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАЛҚИНЛАРИ 115-121

Xadjamuratova Matlyuba Xashimovna
YOSHLARNI IJTIMOIY HIMOYA QILISHNING INNOVATSION XUSUSIYATLARI 122-128

10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Axmedov Oybek Saparbaevich
ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА СОЛИҚ-БОЖХОНА ТЕРМИНОЛОГИЯСИДА АНТОНИМИЯ
ХОДИСАСИНИНГ ЎРНИ 129-137

Rasulova Gulbahor
AYRIS MYORDOK IJODIGA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR 138-143

Norqobilov Sanjar Rahmat o'g'li
КОГНИТИВ ЛИНГВИСТИКА ФАНИНИ ТАQQOSLASHNING UMUMIY TENDENSIYALARI 144-149

*Bobojonov Dilshod Jumaqul ugли, Halilova Shohista Muhammadi qizi, Umarova Maftunbonu
Umidjanovna, Turdaliyeva Shahnoza O'ktamovna, Gulnora Xolmurodova Sattorovna*
LINGUISTIC FEATURES OF THE MODERN NEWSPAPER LANGUAGE: ANALYSIS AND
RESEARCH 150-159

*Sodikova Bakhtigul Ibodullaevna, Berdiyev Suhrob Sobirovich, Togaev Bobur Erkin ugли, Hafizov
Sarvar Boborajab ugли, Maxsumov Rustam Maxamadiyevich*
CHARACTERISTICS OF THE NEO-VICTORIAN NOVEL IN THE "FRENCH LIEUTENANT'S
WOMAN" BY JOHN FOWLES 160-166

Xolmuxamedov Baxtiyor Farxodovich
О'zbek tilida yaratilgan chappa (ters) lug'atlari haqida 167-176

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР

Tўраев Сардор Абдихаким ўғли
БАЪЗИ ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАРДА ИНТЕРНЕТ ТАРМОГИДАН ФОЙДАЛАНИБ СОДИР
ЭТИЛАДИГАН ТАЛОН-ТОРОЖ ЖИНОЯТЛАРИ УЧУН ЖАВОБГАРЛИК
МАСАЛАЛАРИ 177-187

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Kaziyeva Turg'unoy Tursunbayevna
MATNNING GERMENEVTIK KONTSEPTSIYASI VA KOGNITIV GERMENEVTIKA 188-192

Xaydarov Azamjon Asqarovich
“OZIQ OVQAT TEXNOLOGIYASI YO’NALISHI” TALABALARINI UMUMIY KIMYO KURSINI O’QITILISHDA
INTEGRATIV TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY METODIK ASOSLARI 193-198

Allamurodova Sabohat Ibodullayevna
ADABIY TA'LIM TIZIMIDA KULTUROLOGIK YONDASHUV 199-204

Gaynullaeva Yulduz Anvarovna
PROFESSIONAL AND AESTHETIC APPROACH TO TYPES OF WOMEN'S CLOTHING 205-210

07.00.00-Тарих фанлари

Raxmonqulova Masuma Mengniqulovna
Termiz davlat universiteti magistranti
E-mail: raxmonqulovamasuma@mail.ru

ZARDUSHTIYLIK DINIGA OID YOZMA MANBALARNING ARXEOLOGIK MANBALARDA AKS ETISHI

Annotatsiya. Maqlolada zardushtiylik dinining muqqadas kitobi bo'lgan Avesto matnlaridagi ma'lumotlar va arxeologik tadqiqot ishlari natijasida aniqlangan moddiy manbalarni taqqoslab o'rganish orqali Zardushtiylik dinining tarixiy rivojlanishiga va uning O'rta Osiyodagi ta'siriga oid qimmatli ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: zardushtiylik, Avesto, yasht, videvdat, arxeologik materiallar, Sopolli madaniyati, Kuchuk madaniyati, Yaz madaniyati, davlatchilik, kata, vara, to'rt unsur, otashparastlik.

Rakhmonkulova Masuma Mengnikulova
Master's student at Termez State University

REFLECTION OF WRITTEN SOURCES OF THE ZOROASTRIAN RELIGION IN ARCHAEOLOGICAL SOURCES

Abstract. The article provides valuable information about the historical development of the Zoroastrian religion and its influence in Central Asia by comparing information from the texts of the Avesto, which is the holy book of the Zoroastrian religion, and material sources identified as a result of archaeological research.

Key words: Zoroastrianism, Avesto, Yasht, Videvdat, archaeological materials, Sapalli culture, Kuchuk culture, Yaz culture, statehood, kata, vara, four elements, fire worship.

Рахмонкулова Масума Менгникуловна
Магистрант Термезского государственного университета

ОТРАЖЕНИЕ ПИСЬМЕННЫХ ИСТОЧНИКОВ ЗОРОАСТРИЙСКОЙ РЕЛИГИИ В АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКАХ

Аннотация. В статье представлены ценные сведения об историческом развитии зороастрийской религии и ее влиянии в Центральной Азии путем сопоставления сведений из текстов Авесты, являющейся священной книгой зороастрийской религии, и материальных источников, выявленных в результате археологических исследований.

Ключевые слова: зороастризм, Авеста, яшт, видевдат, археологические материалы, Сапаллинская культура, Кучукская культура, Язская культура, государственность, kata, vara, четыре элементы, огнепоклонение.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I7/SY2023N04>

Kirish. Zardushtiylik va uning muqaddas kitobi “Avesto” bo‘lib, uning yaratilish tarixi va tarixiy ildizlari, moddiy madaniyatda qanchalar aks topishi hamda zardushtiylik g‘oyalaringin qadimgi Eron va Turon xalqlari ilk davlatchilik tarixida tutgan o‘rnini o‘rganish bugungi tarix fani oldida turgan dolzarb muammolardandir.

“Avesto” yozma manba sifatida Yevropada nihoyatda yaxshi o‘rganilgan. Yevropa tillariga to‘liq tarjima qilingan va zardushtiylik dinining falsafasi, Markaziy Osiyo xalqlarining mifologik dunyoqarashi, tarixi shu manba asosida yoritib kelinmoqda. “Avesto”ning ayrim qismlari o‘zbek tiliga tarjima qilindi va bu ish mutaxassislar tomonidan davom ettirilib kelinmoqda [1,2].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Zardushtiylik dini bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarni manbaviy asosiga ko‘ra, uch guruhgaga bo‘lish mumkin:

Birinchi guruh adabiyotlarda zardushtiylik dini va “Avesto” manbashunoslik nuqtai nazaridan o‘rganilgan.

Ikkinci guruh tadqiqotlarda “Avesto” g‘oyalari tarixshunoslik nuqtai nazaridan yoritilib, talqin etilgan.

Uchinchi guruh – “Avesto”da aks etgan diniy g‘oyalarning arxeologik materiallar misolida solishtirib, tahlil qilingan tadqiqotlardir.

Zardushtiylik dinining paydo bo‘lishi, uning Eronda davlat dini sifatida keng tarqalganligi, “Avesto” kitobi va uning qismlari haqida, zardushtiylik dinida dafn marosimi bilan bog‘liq urf-odatlar, zardushtiylikkacha bo‘lgan davrdagi diniy e’tiqod shakllari tarixchi olimlar M.Boys [3], V.V.Struve [4], V.I.Abaev [5], J.Darmsteter [6], L.A.Lelekov [7], A.O.Makovelskiy [8], Y.A.Doroshenko [9], M.Meytarchiyan [10], A.A.Neyxard [11], va G.P. Snesarev [12] larning asarlarida aks etgan. Ushbu tadqiqotchilarning asarlarida berilgan fikrlar “Avesto”da keltirilgan g‘oyalari asosida bir qolipda, ya’ni zardushtiylik faqat eroniylar xalqlar tarixi va madaniyatining tarkibiy qismi sifatida yoritishga harakat qilingan. O‘rta Osiyo xalqlarining bu dinning paydo bo‘lishdagi o‘rni va O‘rta Osiyoda o‘tgan asrning 70-yillaridan qo‘lga kiritilgan arxeologik yutuqlar va ularning zardushtiylik dini tarixi bilan bog‘liqlik masalalari ochiqligicha qolgan.

Zardushtiylik dini va uning muqaddas kitobi “Avesto” haqida ingliz olimasi Meri Boys o‘z tadqiqotida zardushtiylik dinining paydo bo‘lishidan to uning XX asrgacha bo‘lgan davrdagi tarixiy jarayonlar bilan bog‘liq ma’lumotlarni beradi. M.Boys o‘z tadqiqotida zardushtiylikning Eronda davlat dini darajasiga ko‘tarilish jarayonlarini, zardushtiylik dini va uning ma’budlarini tasvirlab, dafn marosimi bilan bog‘liq odatlar, diniy ibodat va amallarini nazariy jihatdan asoslab bergen[3].

L.A. Lelekov o‘zining “Avesto” kitobi va zardushtiylik dinining taraqqiyot bosqichiga bag‘ishlangan asarida, Avestoning paydo bo‘lish geografiyasi va uning tarixiy-madaniy interpretatsiyasi haqida fikr yuritadi. Shuningdek, dunyo olimlarining zardushtiylik dini va “Avesto”ga bag‘ishlangan tadqiqotlari tahlil qilinadi, ammo zardushtiylikning protozardushtiylik davri masalasi, dinning dastlabki otashparastlik asosidan ajralib chiqib, rasmiy din tusiga kirgan davri o‘rganilmagan[14].

“Avesto”da aks etgan g‘oyalarning talqini, zardushtiylik dinining paydo bo‘lishi va rivojlanishi masalasi A.O. Makovelskiy asarida yaxshi aks etgan bo‘lib, muallif asarda zardushtiylik dinining o‘rganilish tarixini manbashunoslik, tarix va tilshunoslik nuqtai nazaridan manbaviy-ilmiy tahlil etgan. Ammo, A.O.Makovelskiy asarida zardushtiylik dini va

“Avesto”dagi g’oyalalar aynan qaysi hududda kechganligi o’zining yakuniy yechimini topmagan[8].

Rus olimi Y.A.Doroshenko tomonidan zardushtiylik dinining qadimdan boshlab, to XX asrgacha bo’lgan tarixi, Islom dini paydo bo’lgan davrda Hindistonga quvg’in qilingan zardushtiy jamoalarining tarixi, dinning O’rta Osiyo xalqlari islom dinini qabul qilgandan keyingi davridagi assimilyatsiyasi, zardushtiylik dinining dafn marosimi bilan bog’liq diniy urfatlari chuqur tadqiq etilgan[9].

M.Meytarchiyan zardushtiylarning dafn marosimiga bag’ishlangan asarida “Avesto”ning Videvdat qismida keltirilgan diniy g’oyalarning dafn marosimida aks etishi, yerni ulug’lash sifatlari, mubodlarning dafn marosimidagi o’rni ko’rsatib berilgan. Lekin, muallif asarda umumiyl xulosani Eron zardushtiylari orasida mavjud bo’lgan diniy qarashlar asosida, ya’ni zardushtiylik dinining miloddan avvalgi I ming yillikdan keyin vujudga kelgan, degan qarashlari asosida yoritgan [10].

G.P.Snesarevning tadqiqotida, O’rta Osiyoda Amudaryo etaklariga jon bag’ishlovchi eng muhim omil Amudaryo ekanligi, xorazmliklar e’tiqodida zardushtiylik ma’budalaridan Ardisura Anaxita mashhur ma’budalar sirasiga kirganligini ta’kidlaydi. Shuningdek, Ardisura Anaxita hosildorlik, suv, tug’ilish ma’budasi bo’lib, Xorazm hududlarida suv xavfi mavjud bo’lganligi uchun u oliv ma’buda sifatida qattiq ehtirom qilingan[12].

Bugungi kunda “Avesto” kitobining tarjimalari ko’plab tillarda chop etilgan bo’lib, uning ilmiy tahlili olimlar tomonidan turlicha talqin qilinmoqda. Avestoshunos olimlar I.M.Steblin-Kamenskiy [15], I.V.Rak [16], V.Y. Kryukova [17] va boshqalarning tarjimalari “Avesto” davri yodgorliklari materiallarini zardushtiylik dini nuqtai-nazaridan ilmiy tahlil qilishda muhim o’rin tutadi.

Jahon fanida o’zining munosib maktabiga ega bo’lgan avestoshunoslikka XX asrning so’nggi o’n yilliklarida mazkur manbaning Vatani hisoblanmish O’zbekistonda ham e’tibor kuchaydi. O’zbekistonda Avesto tadqiqotlariga nazar solsak, asosan, XX asrdan boshlab bu kitob haqidagi dastlabki eng muhim ma’lumotlar, qisqa bo’lsa-da, “O’zbekiston xalqlari tarixi” kitobida berilgan edi [18]. Keyinchalik O’zbekiston tarixi bo’yicha akademik nashrlarda yo’l-yo’lakay Avesto haqida fikrlar bayon etildi [19].

O’zbekistonda biz kuzatgan adabiyotlar tafsilotiga ko’ra, avestoshunoslik, aniqrog’i, Avesto haqidagi dastlabki mulohazalar 50-yillarda paydo bo’ldi. Professor N.M. Mallaev “X-XII asrlar adabiyoti” (1958) nomli risolasida Sharq xalqlarining eng qadimgi yozma yodgorligi haqida fikr yuritgan.

1998 yilning may oyida birinchi Prezidentimiz Islom Karimov bir guruh tarixchi olimlar va ijodiy intelligensiya vakillari bilan uchrashganda Avesto kitobi haqida alohida to’xtalib o’tdi. [20] Bu hodisa O’zbekistonda avestoshunoslikka jiddiy turtki bo’ldi. 2000-yil 29-martda Vazirlar Mahkamasining “Avesto yaratilganining 2700 yilligini nishonlash to’g’risida”gi 110-tonli qarori qabul qilindi. [21] Eng muhimi, 2001-yil noyabr oyida YUNESKO ishtirokida Avestoga bag’ishlangan xalqaro konferensiya bo’lib o’tdi [22].

2000 yilda O’zbekiston Respublikasi FA Tarix institutida tayyorlangan “Qadimgi yozma yodgorliklar” nomli jamoaviy monografiyaning 1-qismida akademik A.P.Qayumov ilk marotaba “Xurdak Avesto” (“Kichik Avesto”)ning o’zbek tiliga tarjimasini e’lon qildi [23]. 2001 yilda Avestoning 2700 yilligi yubileyi arafasida A. Mahkam tarjimasida Avesto kitobi hamda M.M.

Is'hoqov tarjimasida "Avesto. Yasht kitobi" kabi nashrlar yuzaga chiqqani muhim madaniy-tarixiy hodisaga aylandi.

Sharqshunoslardan M. Is'hoqov hamda A. Irisovlarning Avestoga doir maqolalari ham yodgorlik mohiyatini keng xalq ommasiga yetkazishda ma'lum ma'rifiy ahamiyat kasb etadi. Filologiya fanlari doktori F.Sulaymonova o'zining "Sharq va G'arb" kitobida qadimgi O'rta Osiyo va Eron xalqlari madaniyatining antik dunyo madaniyatiga ta'siri ildizlarini tekshirar ekan, zardushtiylik va u bilan bog'liq miflarning yunon madaniyatidagi ko'rinishlarini aniqlashga erishdi. Shu munosabat bilan olima Zardushtning vatani, Avestoning yaratilishi, ko'chirilishi, dunyoga tarqalishi, tarkibiy qismlari haqida diqqatga molik fikrlarni bayon etgan [24]. Shunisi diqqatga sazovorki, muallif yangi ma'lumotlar asosida, zardushtiylikni boshqa xalqlar dirlari bilan qiyoslab o'rganib chiqqan.

O'zbek Avestoshunoslida 2007 yilda chop etilgan "Videvdot" naskining izohli ilmiy tarjimasi ham bir muhim voqeа bo'ldi. Bu tarjima ifoda ravonligi, uslub jihatdan o'zbekonaligi bilan ahamiyatlidir [25]. Avesto va o'zbek xalqi urf-odatlarida zardushtiylik reliktlari etnograf olim A. Ashirovning "O'zbek xalqining qadimgi e'tiqod va marosimlari" nomli monografiyasida aks etgan [26].

So'nggi yillarda yurtimiz olimlari M. Is'hoqov, A. Qayumov, A. Mahkamlar tomonidan ham Avestoshunoslilik bo'yicha ikki ilmiy maktab asosida: eron-fors tarjimasi asosida hamda ruscha, inglizcha tarjimalar tajribasiga suyanib tadqiqot olib borilmoqda[29].

Muhokama. O'tgan davr mobaynida ko'pgina tadqiqotchi olimlar tomonidan eroniylarni tilli xalqlarning urf-odatlari, ko'mish bilan bog'liq odatlari, diniy tizimini o'rganish natijasida zardushtiylik dini Eronda paydo bo'lishi va davlat diniga aylanishi to'g'risidagi g'oyalar ustunlik qilishiga sharoit yaratdi. Bu ilmiy yondashuvlarda Ahamoniylar davlatida sharqiy eroniylar yoyilgan hududlarda, ya'ni Baqtriya, Marg'iyona, So'g'diyona, Areya, Xorasmiyalilar orasida bronza davridan boshlab shakllana boshlaganligi hisobga olinmagan, chunki u vaqtarda bu hududlarda protozardushtiylik ibodatxonalar hali ochilmagan edi. Shuningdek, bu vaqtida zardushtiylik dini va "Avesto"ning yaratilishi xususida fikr yuritishda lingvistika, yozma manbalarning tahlili asosiy rol o'ynab keldi. Arxeologik manbalarga suyanish esa ikkilamchi manba bo'lib qoldi. "Avesto"ning Videvdat kitobida ezgulik xudosi Axuramazda yaratgan mamlakatlardan birinchisi Aryanam Vayjada kechgan tarixiy jarayon ilk temir davri bilan bog'lanib o'rganildi, zardushtiylikning ildizlari "Avesto"ga ko'ra chorvador qabilalar jamoasidan qidirildi. Axuramazda yaratgan 16 mamlakatning birinchisi Aryanam Vayja Avestoda Ranxa va Vaxvi daryolari oralig'idagi tekisliklardir, deyiladi. Akademik A. Asqarovning bu boradagi fikrlari o'rinci bo'lib, Xorazmning qadimgi aholisi, ziroatchilik bilan shug'ullangan amirobodliklar, chorvachilik bilan shug'ullangan Quyisoyliklar to miloddan avvalgi VI asrgacha, ya'ni xorasmiyalari kelgunga qadar biror bir monumental inshoot barpo qilmaganlar. Ahamoniylar siquvi ostida Hilmend vodiysida istiqomat qilgan xorasmiyalarning Amudaryo quyi havzalariga borib joylashishi va bu yerda o'troq sug'orma dehqonchilik madaniyatining gullab yashnashi natijasida, Ko'zaliqir, Qalaliqir kabi murakkab mudofaa devorlari bilan o'rabi olingan monumental qasrlar qad ko'tardi [29]. Haqiqatan ham, XX asrning 50 yillarida Ko'zaliqir, Qalaliqir, Qo'yqirilganqal'a yodgorliklarining ochib o'rganilishi, vohada "Avesto" g'oyalari kuchli diniy e'tiqod tizimiga kirganligi arxeologik materiallar va yodgorlik qurilishida yaqqol namoyon bo'ladi. Vaholanki, xorasmiyal bronza davridan e'tiboran Qadimgi Baqtriya va Marg'iyona aholisi bilan madaniy aloqada bo'lib, yuksak dehqonchilik madaniyatini

o'zlashtirgan edilar. Ularning Xorazm hududlariga joylashishi va zardushtiylik dini ilk davlat uyushmalarining shakllanishida muhim o'rinni tutishi Ko'zaliqir va Qalaliqir kabi shahardavlatlarning shakllanishiga turtki berdi. XX asrning 30 yillaridan boshlab "Avesto" g'oyalari arxeologik materiallar misolida o'rganilishining boshlanishi, ilk temir davri tarixiy sharoitini bronza davri tarixiy shart-sharoitlari bilan aralashtirib yuborilishiga olib keldi. Vaholanki, bugungi kunda mavjud arxeologik dalillar zardushtiylik dinining hozirgi Xorazm hududida paydo bo'lishi miloddan avvalgi VI asrdan qadimiy emasligi aniqlandi. Bu dalillar Xorazm vohasi zardushtiylik dinining gullab-yashnagan viloyati sifatida miloddan avvalgi VI asrdan keyin muhim bir hudud bo'lganligini ko'rsatadi.

Videvdatda keltirilgan mamlakatlarning birinchisi Aryanam-Vayja bo'lib, dastlab zardushtiy jamoalar vujudga kelgan hudud Orol bo'yłari va uning shimoliy hududlarida istiqomat qiladilar. Bu yerda qishning uzoq davom etishi va yaylovlarning kamligi, chorvachilik uchun noqulay bo'lib, bu jamoalarni janubga tomon yurishga majbur qiladi. Ular yangi yerlar qidirib Axuramazda "yaratgan" Zarafshon vodiysidagi Gava (Sug'diyona) mamlakatiga, Janubiy Turkmanistondagi Mouru (Marg'iyona) mamlakatiga, Janubiy O'zbekiston hududlaridagi Baxdi (Baqtriya) mamlakati hududlarigacha kirib boradilar.

"Avesto"ning ta'sirini me'morchiligidagi zardushtiylik ibodatxonalarini va minoralar ko'rish mumkin. Zardushtiylik ibodatxonalarini, ya'ni "otashgoh"lar, ko'pincha "Avesto" diniy ko'rsatmalariga binoan qurilgan. Zardushtiylik dinida olov muqaddas ramz hisoblanib, uni saqlash diniy amaliyotning muhim qismi hisoblangan.

Eng mashhur misollardan biri zardushtylarning "sukunat minoralarini" yoki "dakma" dir, bu erda o'liklarning jasadlarini fosh qilish marosimlari o'tkaziladi. Bu tuzilmalar zardushtylarning o'liklarning yerni ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik zarurligi haqidagi e'tiqodiga muvofiq yaratilgan.

Dinning vujudga kelishidagi dastlabki davrda, aholining asosiy bosh hudosini quyosh xudosi bo'lganligi shubhasizdir. Chunki, Sarazm va Jarqo'ton yodgorliklarida ochib o'rganilgan otashparastlik ibodatxonalarini shundan dalolat berib turibdi.

Arxeolog olim Sh.Shaydullayev tomonidan zardushtiylik dinining rivojlanish bosqichlari Qadimgi Baqtriya yodgorliklari misolida quyidagi turlarga bo'lingan edi: birinchi, ilk zardushtiylik davri (Jarqo'ton, To'g'oloq, Dashli misolida), ikkinchi, miloddan avvalgi I ming yillik boshlaridan ahamoniylargacha bo'lgan davr, ya'ni Zaratushtra davri, keyingi bosqichlar esa ahamoniylar davrida zardushtiylik, saklar zarshtiyligi va sosoniylar zardushtiyligi sifatida e'tirof etadi [30].

Zardushtiylik dinining bosh diniy kulti quyosh va uning parchasi – olov bo'lib, dastlab otashparast hisoblangan chorvador qabilalar e'tiqodida ham muhim o'rinni tutgan. Ular e'tiqodida olov ikki jihatga: ilohlar panteonida bosh hudo hisoblangan ajdodlar kulti hisoblangan Qolaqsoy timsoliga ega bo'lgan [31]. Uning timsoli sifatida eneolit davri moddiy madaniyat obidalarida otashkada ko'rinishida o'z izini qoldirgan. U Qadimgi So'g'diyona, Baqtriya va Marg'iyona vohasidagi oilaviy xarakterdan kishilik tarixinining keyingi bosqichlarda, ya'ni bronza davridan boshlab Dashli, Gonur, To'g'oloq va Jarqo'ton kabi yirik mafkuraviy-diniy markazlarning monumental ibodatxonalarini misolida qabila va urug' jamoalarining ilk davlat dini darajasiga ko'tarildi. Olov zardushtiylik dinida bosh poklovchi vosita hisoblanib, uning izlari diniy e'tiqod maskanlarida, ko'mish bilan bog'liq urf-odatlarda, qadimgi ajdodlarning turmush-tarzi va diniy marosimlarida muhim o'rinni tutgan. Bronza davri moddiy madaniyatida

olov yuksak iloh sifatida qadrlanib, uning eng yuqori cho'qqiga ko'tarilganligi Dashli-3, Jarqo'ton, Gonur kabi yodgorliklarda monumental ibodatxona qurilishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Otashparastlar bosh kohini otashkada atrofida diniy marosim va bayramlarni o'tkazgan.

Olovga topinishda bajariladigan marosimlar cheksiz qurbanliklar bilan bog'lab olib borilgan. Otashparastlarda urug' va qabila xudolariga atab qurbanliklar qilish shunchalar avj oldiki, bu nafaqat cheksiz isrofgarchilikka, balki jamoa a'zolarining iqtisodiy hayotiga ham zarar keltiradi. Otashparastlar diniy sistemasini tartibga solish, diniy e'tiqod normalarini isloh qilishni hayotning o'zi talab eta boshladи. Ahamoniylar imperiyasi arafasida bu zaruriyat kun tartibiga chiqib, tarixiy shaxs Zaratushtra otashparastlik diniy qarashlarining bosh islohotchisi sifatida faoliyat olib bordi. Biroq, Eron hududida vujudga kelgan Ahamoniylar davlati hukmdorlari davlatni mustahkamlashda Zaratushtra g'oyalaridan ustalik bilan foydalandilar. va o'zlarini Axuramazda in'om etgan hokimiyat egalari sifatida ko'rsatdilar. Chunonchi, Ahamoniylar davri moddiy yozma yodgorliklari Behistun, Naqshi Rustam va Suzadagi devoriy qoya yozuvlarida Zaratushtra nomi tilga olinmaydi, balki hokimiyat to'g'ridan-to'g'ri Axuramazda tomonidan ahamoniy shohlariga in'om etilganligi ta'kidlanadi.

Otashparast chorvadorlar o'z ibodatlarini ibodatxonalarda emas, balki ochiq havoda, tog' cho'qqilarida amalga oshirganlar. Hinduiylikda kohinlar qat'iy o'rnatilgan qonunlar asosida faoliyat yuritganlar. Oila kohinlari oilaviy diniy ibodatlarga, ibodatxona kohinlari esa oliv kultlarga, umumiy ibodatlarga mas'ul bo'lganlar. Qadimgi Baqtriya va Marg'iyona o'troq dehqon jamoalari kohinlari ham oila o'chog'i atrofidagi ibodatlarga, yirik monumental ibodatxonalar barpo etib, davlat darajasidagi diniy boshqaruв tizimiga bo'ysunuvchi ibodatlarga javobgar bo'lganlar.

Sosoniylar davriga kelib, zardushtiylik dini har jihatdan mustahkamlanib, barcha shaharlarda, qishloq markazlarida ibodatxonalar va otashkadalar qurish amaliyoti avj oladi. Shu orqali Sosoniy hukmdorlari o'z hokimiyatlarini mustahkamlashga intilganlar. Ibodatxonalar ma'buda Anaxitaga bag'ishlab qurilgan bo'lib, u Sosoniylar sulolasining homiysi sifatida qadrlangan va ulardan biri "Anahit Artahastr", ya'ni sosoniylarning birinchi hukmdori Ardashe I ga bag'ishlangan bo'lishi mumkin. [32] Sosoniylar davrida mamlakatda otashkadalar maxsus rejalar asosida qurilgan ibodatxonalarda bo'lib, ibodatxonalar qalin mudofaa devorlari bilan o'rab olinadi. Bu esa olovni muqaddaslashtirib, unga alohida davlat darajasida maqom bergen.

Yaz I davri kulolchiligidan ham yangi an'analar, yangi shaklli idishlar paydo bo'ladi. Yaz I davriga kelib O'rta Osiyo kulolchiligi tarixida birinchi marotaba idish qopqoqlarining paydo bo'lganligini va keng tarqalganligini kuzatishimiz mumkin. Bu holatni ham kishilarning diniy va ideologik qarashlarining o'zgarganligi alomati deb baholaymiz va zardushtiylik urf-odatlari bilan bog'laymiz. Negaki, zardushtiylik urfi bo'yicha ovqat tayyorlash chog'ida yonayotgan olovga yoki kulga ovqatning tomchilari sachrashi mumkin bo'lmagan. Kuchuktepa, Talashqon I tepaliklaridan topilgan qopqoqlarning diametri qozonlar og'zi diametri bilan mos kelishi va ko'p hollarda qopqoqlarning olovda qorayganligi shu xulosani aytishga imkon beradi.

Kuchuk I davriga kelib qora bazalt toshidan yasalgan, bikonik shakldagi yorg'uchaq va o'g'irchalar paydo bo'ladi. Shu singari tosh quollar Mirshodi yodgorliklaridan topilgan. Tadqiqotchilar tomonidan ushbu quollar ibodat qurollari deb atalib, o'simlik moddalarini yanchishda (xaoma tayyorlashda) qo'llanilgan deb hisoblaydilar .

Qish davrida, yomg'ir va qorli kunlarda murdaga qanday munosabatda bo'lish to'g'risida ham "Avesto" dan ayrim ma'lumotlarni topishimiz mumkin. Har bir jamoada, har bir qishloqda mayitlar uchun alohida xona — "kata" qurilganligi ma'lum . Qurilgan xonaning ko'lami odam tik turganda boshi shipga, yotganda esa qo'l va oyoqlari devorlarga tegmasligi lozim bo'lgan. Shu yerda murda ma'lum vaqt, toki "qushlar uchib kelguncha va kunlar isiguncha" saqlanishi mumkin bo'lgan. Fikrimizcha, arxeologik jihatdan shunday xona Qiziltepa qazishmalari chog'ida ham o'r ganilgan. Ushbu xonadan odam suyaklarining bo'laklari topilgan. O'r ganilgan xonaning sathi 9 m² bo'lib, qalin toza tuproq qatlami bilan to'ldirilgan. Bu xonadan hech qanday arxeologik topilma, shuningdek isitish va oshxona o'choqlari izlari ham topilmagan. A.S. Sagdullaevning fikricha, bu xona turar joy yoki xo'jalik xonasi vazifasini bajarmagan va bronza davridagi o'likni xona pollari va devorlari tagiga ko'mish an'anasing saqlanishi deb hisoblaydi [28]. Bizning fikrimizcha, bu yerda arxeologiya va "Avesto" ma'lumotlari uyg'unlashgan, ya'ni "Avesto"da ta'riflangan "kata" o'r ganilgan.

Xulosa. Bugungi kunda "Avesto" g'oyalarining arxeologik materiallar misolida qiyosiy o'r ganish orqali arxeologiya sohasida yangi bir yo'nalish, ya'ni "Avesto arxeologiyasi" vujudga kelmoqda. Bu sohada qilinayotgan tadqiqotlarda zardushtiylik dini tarixini arxeologik materiallar misolida o'r ganish bilan birga, "Avesto" da aks etgan davlatchilik, "Avesto jamiyati"ning ijtimoiy tarkibi, dinning muqaddas unsurlari olov, suv, havo, yer va xudolar madh etilgan g'oyalarning arxeologik materiallardagi in'ikosi masalasiga e'tibor qaratilgan.

"Avesto" davri arxeologiyasi ham O'rta Osiyo olimlari tomonidan jadal o'r ganib kelinmoqda. Arxeolog olimlar A. Asqarov, V. Masson, V. Sarianidi, T. Shirinov, Sh. Shaydullaev va boshqalarning tomonidan bronza va temir davrlariga oid ko'plab shaharlar, qishloqlar, qo'rg'onlar o'r ganilib, ulkan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Ammo, arxeologiyada zardushtiylik va "Avesto" ma'lumotlarini qadimgi davr yodgorliklari bilan taqqoslab o'r ganishda izchillik yetishmay kelmoqda [33]. Yozma va moddiy manbani taqqoslab o'r ganish tarix faniga to'liqroq ma'lumot beradi. Bu O'rta Osiyo xalqlarining qadim tarixini o'r ganish borasida yangi ilmiy yo'nalish bo'lib, moddiy madaniyat ashyolarini "Avesto" ma'lumotlari bilan taqqoslab o'r ganiladi. Buning natijasida Avesto stratigrafiyasi, O'rta Osiyoda jamoa taraqqiyoti, O'rta Osiyoda ilk davlatchilik kabi masalalarda yangi ma'lumotlar asosida yoritish imkonini beradi. Mazkur ilmiy ishda borada mavjud chorvador ko'chmanchi xalqlar va o'troq xalqlar qoldirgan moddiy madaniyat alohida, ikkita bobda "Avesto" bilan taqqoslab o'r ganiladi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Is'hoqov M. Avesto, Yasht kitobi //Toshkent. Sharq. – 2001.
2. Avesto. Asqar Mahkam. tarjimasi. – T.: Sharq, 2001.
3. Бойс М. Зороастрйцы: верования и обычай. – М.: Наука, 1988.
4. Струве В.В. Родина зороастризма. Рабочая хроника института востоковедения за 43 г. – Т., 1944.
5. Абаев В.И. Антидевовская надпись Ксеркса // Иранские языки. – М.,-Л., 1945. Т. 1.
6. Darmsteter. The Sacred books of the East. – Oxford, 1895. V. IV.
7. Лелеков Л.А. Локальные и синкретические культуры. – М.: Наука, 1991; Авеста в современной науке. – М., 1992.
8. Маковельский А.О. Авеста. Баку, 1960.
9. Дорошенко Е.А. Зороастрйцы в Иране (Историко-этнографический очерк). – М.: Наука, 1982.

10. Мейтарчиян М. Погребальные обряды зороастрийцев. – М., 1999.
11. Нейхард А.А. Скифский рассказ Геродота в отечественной историографии. – Л.: Наука, 1982.
12. Снесарев Г.П. Под небом Хорезма. – М.: Мысль, 1973. С. 100-103.
13. Бойс М. Зороастрйцы: верования и обычаи. – М.: Наука, 1988.
14. Лелеков Л.А. Зороастранизм: явления и проблемы. – М.: Наука, 1991.
15. Стеблин-Каменский И.М. Авеста: Избранные гимны из Видевдата. – М., 1993
16. Рак И.В. Авеста в русских переводах (1861-1996). –СПб, 1997.
17. Крюкова В.Ю. Авеста. Видевдат, Фрагард Восьмой // Вестник древней истории. – 1994.
18. История народов Узбекистана. Т.И. –Т.: Фан, 1950.
19. O'zbekiston tarixi.T. I . –T.: Fan, 1967.
20. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q //T.: Sharq. – 1998.
21. <https://lex.uz/docs/-1672588>
22. "Avesto" va uning insoniyat taraqqiyotidagi o'rni. O'zFA. – T.: Fan, 2001.
23. Qayumov A.P. Xurdo Avesto // Qadimiy yozma yodgorliklar. – T.: Yozuvchi, 2000.
24. F. Sulaymonova. Sharq va g'arb. Toshkent: Sharq 2001.
25. Avesto: Videvdot kitobi // M.Is'hoqov tarjimasi. – T.: TDShI nashriyot - bosmaxona bo'limi, 2007.
26. Ashirov A. O'zbek xalqining e'tiqod va marosimlari. – T.: Alisher Navoiy nomli O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
27. Jo'raeva F."Avesto"ning o'zbekcha tarjimalari haqida // "Avesto" va uning insoniyat taraqqiyotidagi o'rni. O'zFA. – T.: Fan, 2001.b. 55-57.
28. Сагдуллаев А. С. Усадьбы древней Бактрии. 1987. – С. 76.
29. Asqarov A. Qadimgi Xorazm tarixiga doir ba'zi bir masalalar // O'zbekiston etnologiyasi: yangicha qarashlar va yondashuvlar. – Т., 2004. – В.76-84.
30. Shaydullayev Sh. O'rta Osiyoda zardushtiylikning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari // "Avesto" va uning insoniyat taraqqiyotidagi o'rni. – Toshkent-Urganch. 2001. – В. 26-27
31. Рапопорт Ю.А. Из истории религии Древнего Хорезма. – М., 1971. – С. 57-60.
32. Mohammadpour H., ANDAROODI E., Talebian M. H. Recognition of Sassanid Takht-i-Nishin (Throne Room) in the Middle of Ardeshir Khorra City; A Proposition of a Temple of Anahita and Fire Chartaqi in the Continuation of Previous Traditions //Journal of Archaeological Studies. – 2022. – Т. 13. – №. 4. – С. 161-187.
33. Abdullayev B. O'rta Osiyo ilk davlatchilik jarayoni va "Avesto" arxeologiyasi masalalari. // "Avesto" va uning insoniyat taraqqiyotidagi o'rni. O'zFA. – T.: Fan, 2001.b. 24-25.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

N^o S/7(3) – 2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:
100070. Тошкент шаҳри, Яққасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).